

**ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIYNING “TUHFAT UL-ANOM TARIXI
BAYT UL-XARAM” ASARIDA ARAB MAMLAKATI TAVSIFI**

**DESCRIPTION OF THE ARAB STATE IN WORK OF “TUHFAT UL-ANOM
TARIKHI BAYT UL-KHARAM” BY ABDURAHMON SAYYOH TASHKANDI**

Raxmanov Umidjon Shokirjonovich

Sh.I. Kichik ilmiy xodimi

umidrakhman@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvar jadid ziyolisi Abdurahmon Toshkandiy Sayyoh tomonidan yozilgan «Tuhfat ul-Anom tarixi bayt ul-Xaram» asarining asosiy mazmuni va tarixiy ahamiyati yoritiladi. Muallifning sayohatlari, tarixiy shaxsiyati va ayniqsa Arab mamlakati tafsifi tahlil qilinadi. Maqola XIX–XX asr boshlarida yozilgan bu asarning ilmiy-tarixiy va madaniy qadriyat sifatida tutgan o'rnini ochib beradi, ayniqsa o'z davrida yozilgan haj sayohatnomasi sifatida muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Sayyoh, Arab mamlakati, «Tuhfat ul-Anom tarixi bayt ul-Xaram» gaz, Mizobi Rahmat, Bob ar-Rahmat, «al-Isloh» jurnali, jadid.

Abstract. This article explores the main content and historical significance of «Tarikhi Bayt ul-Kharam», a work written by the enlightened Jadeed intellectual Abdurahmon Sayyoh Tashkandi. The study focuses on the author's travels, his historical background, and especially his detailed descriptions of the Arab state. The article highlights the scientific, historical, and cultural value of this work, written in the late 19th and early 20th centuries, emphasizing its importance as a pilgrimage travelogue and a valuable historical source of its time.

Key words. Sayyah, Arab state, «Tuhfat ul-Anom tarikhi bayt ul-Kharam» gaz, Mizab-i Rahmat, Bab al-Rahmat, «al-Islah» magazine, jadeed.

Adabiyotlar tahlili. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar tahliliga e'tibor qaratilsa, ularni ikki guruhga bo'lish mumkin: birlamchi va ikkilamchi manbalar. Asosiy birlamchi manba sifatida Abdurahmon Toshkandiy Sayyohning 1913-yilda Toshkentda toshbosma shaklida nashr etilgan «Tuhfat ul-Anom tarixi bayt ul-Xaram» asari hisoblanadi. Mazkur asar maqolaning tahliliy negizini tashkil qilib, Ka'baning me'moriy tuzilishi, tarixiy o'lchovlari va haj ziyoratiga doir muhim tafsilotlarni bevosita muallif ko'rgan holatlar asosida bayon etadi. Asarda o'rta asrlarda ishlatilgan «gaz» o'lchov birligi asosida Ka'baning barcha

tomonlari, eshik, ustun va boshqa elementlari aniq tavsiflangan bo‘lib, maqola muallifi bu ma’lumotlarni zamonaviy metrik tizimga moslashtirib taqdim etgan.

Ikkinchi darajali manbalar qatoriga Toshkandiy Sayyohning hayoti, ilmiy faoliyati va davr kontekstini yorituvchi asarlar kiradi. Bular orasida O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, N. Abduazizovning «Milliy jurnalistika tarixi» nomli asari, M. Xudoyqulovning «O‘zbek hajviy publitsistikasi», shuningdek, jadidchilik harakati haqida ma’lumot beruvchi www.jadid.uz sayti alohida o‘rin tutadi. Ushbu manbalar Toshkandiy Sayyohning jadidchilik ruhidagi faoliyatini, «al-Isloh» jurnalidagi ishtiroki, uning jamiyatga ta’sirini yoritishda yordam beradi. Jumladan, Cho‘lpon va boshqa jadid vakillarining fikrlari asosida maqolada Toshkandiyning ijtimoiy-ma’rifiy qarashlari ham ochib berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanilgan bo‘lib, ular asarning ilmiy qiymatini oshiradi. Birinchidan, tarixiy-tahliliy metod asosida «Tuhfat ul-Anom tarixi bayt ul-Xaram» asarida keltirilgan ma’lumotlar tarixiy ketma-ketlikda ko‘rib chiqilgan. Ka’baning qadimdan to XIX asr oxirigacha bo‘lgan o‘zgarishlari, me’moriy tuzilishidagi tafovutlar muallif tomonidan izchil tahlil qilinadi. Ikkinchidan, maqolada manbashunoslik yondashuvi kuchli seziladi. Ya’ni, Toshkandiy Sayyohning o‘z asari asosiy tahlil manbasi sifatida olinib, undagi iqtiboslar va faktlar bevosita sharhlangan. Uchinchi metod sifatida deskriptiv, ya’ni tasviri yondashuv qo‘llanilgan bo‘lib, maqola Ka’baning ichki va tashqi tuzilishini, eshik, ustun, darvoza, Mizobi rahmat, Bob ar-Rahmat kabi elementlarini aniq va batafsil tarzda tavsiflaydi. Bu jihatlar o‘quvchiga tarixiy tasavvur berish bilan birga, me’moriy tafsilotlarning muhimligini ochib beradi. To‘rtinchidan, qiyosiy metod yordamida Ka’baning Ibrohim (a.s.) davridagi holati bilan XIX asr oxiridagi holati solishtirilib, vaqt davomida yuz bergan o‘zgarishlar aniq ko‘rsatilgan.

Tahlil va natijalar. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari Turkiston o‘lkasida ma’rifatparvarlik harakatlari hamda jadidchilik g‘oyalarining rivojlanishi natijasida aholi orasida turli fan sohalariga qiziqish ortib bordi. Xorijiy mamlakatlarga turli maqsadlar bilan safar uyushtirgan turkistonliklar orasida esdaliklar yozib qoldirish, sayohatnomalar orqali o‘zlari ko‘rgan-kechirganlarini kitobxonlarga yetkazish va bu orqali xorij tajribalari bilan mahalliy aholini tanishtirish va ularning bunga rag‘batini oshirishni maqsad qilgan edilar. Shunday sayyohlar qatoriga Abdurahmon Toshkandiy ibn Muhammad Sodiq edi.

Abdurahmon Toshkandiy 1896-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Otasining ismi Muhammad Sodiq bo‘lgan. U 1889-yilda ota-onasi, akasi va singlisi bilan birga Makka shahriga haj ziyoratiga jo‘naydi. Ular Toshkent – Samarqand – Buxoro – Mashhad – Isfahon – Karbalo yo‘nalishidan Makka shahriga yetib kelishgan. [3: 428] Haj ziyorati vaqtida noma’lum sababga ko‘ra, oilaning boshqa a’zolari vafot etgan. Birgina Abdurahmon Toshkandiy tirik qolgan. Shu bois, ular haqidagi ma’lumotlar uchramadi.

Abdurahmon Toshkandiy dastlab Toshkentdagi maktablardan birida o‘qigan. Arabistonda o‘z oilasidan ajralgach, Hindistondagi Rajpur shahriga kelib qolgan. Bu yerdagi madrasalardan birida tahsil olgan. Hind, ingliz, arab, fors, urdu, turk tillarini o‘rganadi.

Abdurahmon Toshkandiy shu tariqa ko‘plab shaharlarni sayohat qiladi. Hindistonda ma‘lum muddat yashagach, u yerdan Xitoyga o‘tadi. Manjuriya orqali Rossiyaga o‘tmoqchi bo‘lganida 1905-yilgi rus-yapon urushida yaponlar qo‘liga asir tushib, Mukden shahriga olib ketiladi. Urushdan so‘ng yana Hindistonga qaytib, Bombeydagi Rossiya bosh konsulligiga murojaat qilib, Afg‘oniston orqali Turkistonga qaytadi. 1908-yilda Toshkentga Qaytgan Abdurahmon Toshkandiy bu yerda Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) bilan tanishdi va o‘zining «Sayohatnomalar» nomli turkum asarlarini nashr eta boshladi. Ushbu asarlarini Sayyoh taxallusi bilan nashr ettirdi. Munavvarqori Abdurashidxonov bilan hamkorlikda 1915-yil «al-Isloh» jurnaliga asos solishdi va bu jurnalning nashr etilishi Sovet hokimiyati tomonidan ta‘qiqlangunicha, ya‘ni 1918-yilgacha samarali faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu jurnal, M. Xudoyqulovning ta‘kidlashicha, «al-Isloh» jurnali ijtimoiy hayotdagi qator sohalarda islohot o‘rkazish tarafdori bo‘lgan. [4: 20.] Mazkur jurnal haqida Abdulhamid Cho‘lpon ham uchbu fikrlarni ilgari surgan: «Buning maslagi boshida mutaassib, so‘ngra hur va eng oxirida bobshinin noshiri bo‘ldi» [2: 216].

Yuqorida aytilganidek, Sayyoh Abdurahmon Toshkandiy o‘zi kezgan yurtlar haqida bir qancha sayohatnomalar yozib qoldirdi. Shular jumlasidan, u Makkaga safar qilgani bois, Makka va Madina shaharlari tavsifi, Ka‘ba va Masjid al-Haromning tarixi, bu joylarning fazilatlar va o‘sha davrdagi ko‘rinishi haqida «Tuhfat ul-Anom tarixi bayt ul-Xaram» («Bayt ul-Xaram tarixi bo‘yicha odamlarga sovg‘a») – qisqacha «Tarixi Bayt ul- Xaram » («Bayt ul-Xaram tarixi») nomli asar yozib qoldirdi. Mazkur asar hijriy 1331-yil 25-rajab, milodiy 1913-yil 15-iyun kuni Toshkent bosmaxonalaridan birida chop etildi. Bugungi kunda ushbu asarning bir toshbosma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining toshbosmalar fondida № 484 inventar raqami ostida saqlanmoqda.

«Tarixi Bayt ul- Xaram » asarida eng ko‘p e‘tibor berilgan masalalardan biri bu Ka‘abaning tavsifidir. Biz mazkur maqolada Ka‘baning qurilishi va ta‘mirlanishi tarixiga chuqur kirmagan holda, o‘sha davrdagi Ka‘baning tashqi qiyofasini shu asar orqali o‘rganishga intilamiz.

Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, asardagi barcha uzunlik o‘lchov birlikalari o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda qo‘llanilgan gaz o‘lchov birligi bilan ta‘riflangan. Gazning miqdori qanchaligi haqida ham yozgan bo‘lib, uni shar‘iy gaz sifatida e‘tirof etib, 24

barmoqqa tengligini aytib o'tgan [1: 18]. 24 barmoq, taxminan, 52–55 santimetrga teng bo'lib, aytilish kerakki, ikki gaz 1 m dan sal shiqroq masofani anglatgan.

Barchaga ma'limki, musulmonlarning muqaddas ziyoratgohi va eng birinchi masjidi hisoblanmish Ka'ba to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, barcha burchaklarining o'z nomi bor. Abdurahmon Toshkandiy ham o'z asarida uni burchaklarini o'z nomlari bilan aytib o'tadi. Bunda Ka'baning shimoliy burchagi rukni shomiy, g'arbiy burchagi esa rukni iroqiy, janubiy burchagi rukni yamoniyy va sharqiy burchagi esa rukni Hajar al-Savad deb atalgan. Sharqiy burchagining rukni Hajar al-Asvad deyilishiga sabab esa, o'sha burchakda musulmonlar uchun qadrli hisoblangan va jannatdan nozil bo'lgan, deya e'tiqod qilinadigan qoratosh borligi uchun shunday atalgan.

Abdurahmon Toshkandiy, islom tarixiga oid bir qancha asarlarga asoslanib, Ibrohim alayhissalom davrida Ka'ba qurilgan paytdagi o'lchamini keltirgan. unda aytiladiki, o'sha vaqtda Ka'baning balandligi to'qquz gaz (qarib 5 metr) va Hajar al-Asvaddan rukni shomiygacha o'ttuz ikki gaz (qarib 17 metr) va rukni shomiydan rukni iroqiygacha yigirma ikki gaz (qarib 12 metr) va rukni iroqiydan rukni yamoniyygacha o'ttuz bir gaz (17 metr dan sal kamroq) va rukni yamoniyydan Hajar al-Asvadgacha yigirma gaz (11 metr dan ko'proq) bo'lgan va Ka'bagacha kriish joyida eshik o'rnatilmagan, ochiq holda bo'lgan [1: 17].

Bu ma'lumotlar, avval ta'kidlanganidek, Ibrohim alayhissalom davridagi o'lchamlar, ya'ni bundan bir necha ming yil oldingi o'lchamlar bo'lib, shu orada Ka'ba yana bir necha marta ta'mirlanib, qayta qurilgan va shu jihatdan ham o'lchamlarda o'zgarish bo'lishi tabiiy holdir. Shuni inobatga olgan holda Sayyoh Abdurahmon Toshkandiy o'zi yashagan davrda, ya'ni XIX asrning oxirlaridagi Ka'baning o'lchamlarin ham keltirgan. unda aytilishicha Hajar al-Asvaddan rukni shomiygacha yigirma bir gaz (11 metrdan oshiqroq); rukni shomiydan rukni iroqiygacha yigirma besh gaz (13 metrdan oshiqroq); rukni iroqiydan rukni yamoniyygacha yigirma ikki gaz (qarib 12 metr); rukni yamoniyydan Hajar al-Asvadgacha yigirma to'rt gaz (13 metrdan oshiqroq); devorning kengligi ikki gaz (0,5 metrdan oshiqroq) va darvozaning kengligi to'rt gaz (2 metrdan oshiqroq) va Ka'bayi muazzamaning balandligi yigirma yetti gaz-u chorak (qarib 15 metr) va tomning kengligi o'n sakkiz gaz (10 metrga yaqinroq).

Ka'baning devorining bir tomoni balandroq qilib qurilgan. Asarda ta'kidlanishicha, Mizobi rahmat – yomg'ir suvi ketishi uchun yasalgan tamovda suv oson oqishi uchun devorning bir tarafi bir gaz balandroq qilib qurilgan. [1: 49] Mizobi tahmatning shimol tomonida yasalganini inobatga olsak, demak, Ka'baning janubiy tarafidagi devori bir gaz balandroq qilib qurilgan.

Abdurahmon Toshkandiy Ka'baning ostonasi balandligi haqida ham ma'lumot qoldirgan. Unda aytilishicha to'rt gaz va bir gazning sakkizdan bir hissasidadur. [1: 50] Bu o'lchov,

taxminan, 2,1 dan 2,3 metrgacha bo‘lgan balandlikka teng keladi. Bundan tashqari Ka’ba ostonasiga ham kumush taxtadan zinalar yasaliib, uning ustiga juda chiroyli naqshlar ham bezatilgan edi [1: 50].

Ka’baning darvozasi haqida ham ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, darvoza, ya’ni Ka’baning eshigi sharq tomonga qaragan bo‘lib, eni 4 gaz (2 metrdan oshiqroq), balandligi esa oti gaz-u o’n barmoq (3,5 metrga yaqin) degan o’lcham qayd etilgan. [1: 50]. Ka’ba eshigi oj deb atalgan yog’ochdan yasalgan bo‘lib, u kumush mixlar bilan devorga mahkamlangan. Yuqori qismida tilladan ishlangan qismi ham bo‘lib, eshig tutqichi kumush halqalardan ishlangan va qulf osib qo’yilgan. [1: 51]

Ka’baning ichki qismi ham batafsil yoritilgan. Abdurahmon Toshkandiyning ma’lumot berishicha, Ka’baning ichki qismida uchta ustun bo‘lib, bu ustunlarning vazifasi tomni ko’tarib turish edi. Muhim ma’lumotlardan biri shuki, Ka’baning ichki qismida bir eshik bo‘lib, u Bob ar-Rahmat deb ataladi. [1: 53] U orqali Ka’baning ichidan tomga chiqish mumkin.

Xulosa. Abdurahmon Toshkandiy Sayyohning «Tarixi Bayt ul- Xaram » asari nafaqat haj safari taassurotlarini o‘zida mujassam etgan sayohatnoma, balki o‘z davri uchun noyob ilmiy va tarixiy manba sifatida alohida ahamiyatga ega. Unda Ka’baning qadimiy davrlardan to XIX asr oxirigacha bo‘lgan holati, me’moriy tuzilishi, o’lchamlari, eshik va ustunlarining joylashuvi kabi jihatlar aniq va batafsil tarzda tavsiflangan. Toshkandiyning yuksak kuzatuvchanligi, ilmiy manbalarga tayanib fikr yuritishi, hamda shar’iy o’lchov birliklarini zamonaviy qiymatlar bilan solishtirgan holda bayon qilishi uning asarini ilmiy jihatdan yanada qimmatli qiladi. Shuningdek, mazkur asar orqali o‘zbek jadidchiligi vakillarining diniy-ilmiy merosga bo‘lgan yondashuvi va ilmiy tafakkur darajasi ham o‘z aksini topgan. «Tarixi Bayt ul- Xaram » asari bugungi tadqiqotchilar uchun ham Arab mamlakati tarixini o‘rganishda muhim yozma manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmon Toshkandiy Sayyoh. Tuhfat al-anom tarixi Bayt al-Harom. – Toshkent, 1331/1913 // O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining toshbosmasi. № 484.
2. Абдуазизова Н. Миллий журналистика тарихи. I жилд. – Тошкент: Шарк, 2008.
3. Аҳмедов С. Сайёҳ // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзбекистон Миллий энциклопедияси» Давлат илмий гашриёти, 2004.
4. Худойкулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикаси. – Тошкент: Университет, 2001.
5. www.jadid.uz